










Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng yuqori o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori moliya va sug'urta faoliyati 3 672,4 ming so'mni tashkil etmoqda. Keyingi o'rinlarda tashish va saklash 2 286,6 ming so'mga to'g'ri kelmoqda. Eng past ko'rsatkich ta'lim 1 694,4 ming so'mni, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish 1 444,1 ming so'mni tashkil etmoqda.

### Shahar va tumanlar kesimidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi


(2019-yil uchun, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlarisiz, ming so'mda)



Shuningdek, hududlar kesimida qaraydigan bolsak, o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori miqdori Farg'ona (2 424,8 ming so'm, viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 12,8 foiz), Qo'qon (2 031,8 ming so'm) shahar Toshloq tumanida (1 8475,3 ming so'm) va Quvasoy (1 966,9 ming so'm) shaharlarida kuzatildi.

### O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o'tgan yilga nisbatan hududlar kesimida o'sish sur'ati

(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlarisiz, foizda)




**O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha**  
(yanvar-gekabr qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subektlarisiz, ming.so`mda)

	2018 yil	2019 yil
Sanoat	2099,3	2448,9
Qurilish	1893,5	2196,4
Savdo	2176,2	2305,8
Tashish va saqlash	1885,9	2286,6
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	953,9	1142,1
Moliya va sug'urta faoliyati	2638,2	3672,4
Ta'lim	1300,2	1694,4
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1099,3	1444,1
Boshqalar	1427,4	1934,6

## [Ma'lumot uchun:](#)

O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksiga muvofiq, muayyan davr uchun belgilangan mehnat normasini va mehnat vazifalarini to'liq bajargan xodimning oylik mehnat haqi qonun hujjatlarida Mehnatga haq to'lash yagona tarif setkasining birinchi (2019 yil sentabr oyida **634880** so'mni tashkil etgan,

Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 18-yanvardagi 47-sonli qaroriga binoan, mehnatga haq to'lash yagona tarif setkasiga o'zgartirish kiritildi va 1,2,3-razryadlari koeffitsiyentlari oshirildi) bo'yicha belgilangan miqdordan oz bo'lishi mumkin.



*Statistika demography va mehnat bo'limi*

*Telefon: (73) 230-87-33*